

Xulosa: qilib aytganda, adabiy turizm xalqaro turizmning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida mamlakat madaniy hayotida alohida o'rin tutadi. Adabiy turizmni rivojlantirish qator muhim afzalliklarga ega. Adabiy turizm adabiyot bilan bog'liq tarixiy joylarni saqlashga yordam beradi, adabiyot, tarix va madaniyat haqida ko'proq bilim olish imkoniyatini beradi, turizm sohasini diversifikatsiya qilishga yordam beradi va yangi sayyohlarni jalb qiladi. Adabiy turizm yozuvchi va shoirlar bilan bog'liq unchalik mashhur bo'lmagan hududlarning rivojlanishiga turtki beradi, adabiyotga qiziqishni oshiradi va kitobxonlikni rag'batlantiradi. Adabiy turizmni rivojlantirish madaniy merosni saqlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ta'limni rag'batlantirish va turizmni diversifikatsiya qilish orqali jamiyatga katta foyda keltiradi. Shu sababdan adabiy turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-4861.
2. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriyy and fazliyy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
3. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
4. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
5. Kobilova, Z. (2019). THE TRADITION AND FEATURE IN THE CREATIVE WORK OF AMIRIY. *Theoretical & Applied Science*, (9), 436-439.
6. Kabilova, Z. (2022). STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 669-671.
7. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(9), 58-67.

QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o'g'li,

University of Business and Science

oliy ta'lim muassasasi

til va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muzeylar insoniyatning tarixiy, madaniy va ilmiy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishning muhim manbalaridan biridir. Ular faqatgina tarixiy yoki madaniy obyektlarni saqlash joylari emas, balki insoniyatning rivojlanish yo'lini tushunish va o'rganish imkoniyatini yaratadigan muassasalar hisoblanadi. Muzeylar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy, ma'naviy va ta'limiy rol o'ynaydi. Ularning tashkil etilishi, rivojlanishi va jamiyatga ta'siri haqida gapirganda, bir necha muhim jihatlarni ko'rib chiqish mumkin.

Muzeylar xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni rivojlantiradi. Turli mamlakatlardan kelgan eksponatlar va ko'rgazmalar orqali turli xalqlar o'rtasida hamjihatlik va o'zaro tushunish o'rnatiladi. Madaniy va tarixiy asarlar boshqa mamlakatlarga ko'chirilishi yoki o'zgacha formatlarda taqdim etilishi orqali global miqyosda aloqalar o'rnatiladi. Bu jarayon xalqlarning madaniyatini o'rganish, uning boyliklarini qadrlash va turli madaniy qatlamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga yordam beradi.

O'zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosi, uning ulug'vor san'ati va ilmiy yutuqlari yillar davomida dunyo miqyosida tan olingan. Shu jumladan, Qayyumovlar sulolasi o'zining ajoyib faoliyati, ilmiy ishlari, san'at va madaniyatga qo'shgan hissasi bilan yurtimizning yuksalishida muhim rol o'ynagan. Qayyumovlar sulolasi uy-muzeyini tashkil etish nafaqat shu sulolaning

tarixini yodga olish, balki jamiyatga ulkan madaniy va ilmiy merosni yetkazish, yangi avlodga o'rgatish imkonini yaratadi.

Qayyumovlar sulolasi, o'zining ilmiy va san'atkorlik faoliyati bilan yurtimizda katta iz qoldirgan. Ularning hayoti va faoliyati, yurtimizning ma'naviy, ilmiy va madaniy rivojiga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham ahamiyatli. Qayyumovlar sulolasi uy-muzeyi tashkil etilishi orqali bu buyuk sulolaning tarixiy va adabiy merosi, ularning zamonlar davomida amalga oshirgan kashfiyotlari, san'at asarlari, ilmiy yutuqlari va jamiyatga qo'shgan hissasi saqlanadi va kelajak avlodlarga yetkaziladi. Bu, avvalo, milliy xotirani saqlash va tarixiy adolatni tiklash maqsadiga xizmat qiladi.

Qayyumovlar sulolasi, o'zining ilmiy faoliyati bilan ko'plab yutuqlarga erishgan. Ularning ishlari, ilmiy tadqiqotlari va kashfiyotlari nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan. Uy-muzey, o'z navbatida, bu ilmiy yutuqlarni keng jamoatchilikka tanitish va targ'ib qilish uchun ajoyib maydon yaratadi. O'quvchilar, talabalar va ilmiy xodimlar uchun bu muzey ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshiradi va yangi bilimlar olishga yordam beradi. Muzeyda o'quv materiallari, asarlarning nusxalari va ilmiy tadqiqotlar jamlangan bo'lib, bu ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shadi.

Bir oilaning uch nafar a'zosi O'zbekiston Milliy ensiklopediyasidan o'rin olishi ham kam kuzatiladigan holatlardan biridir (Po'latjon Qayyumiy, Aziz Qayumov, Laziz Qayumov). Adabiyotshunos E.Samandar Po'latjon Qayyumiyning xotirlaganida uning shaxsiyatini quyidagi uch jihati orqali tasvirlashga harakat qilgan edi: "Po'latjon Qayyumiy fenomeniga to'xtalindanda mening xayolimga uch narsa (xislat) keladi: ilm, jasorat, fidoyilik"¹⁴⁹. Umuman, bu sulolaning har bir a'zosi tarixda o'zidan sezilarli iz qoldira olgan.

Po'latjon domulla Qayyumiy 1885-yilda Xo'qandi latifning Xo'jand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallasi (hozirgi 1-Sharq ko'chasi)da dunyoga kelgan. Otasi Abdulqayyum mirzo ham xattot bo'lib, u kishi ko'chirgan Navoiy devonlari Toshkentda litografiya usulida bosilgan. Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxividagi ma'lumotlarga ko'ra, Abdulqayyum Mirzo 1840-yilda tug'ilgan. Po'latjon Qayyumiy uning kenja farzandi bo'lgan. Abdulqayyum Mirzo xattotlikdan tashqari, madrasada mudarrislik faoliyati bilan ham shug'ullanib, 1913-yilda olamdan o'tgan. Uning otasi Abdurrahim Mirzo yuz qabilasi lashkarboshilaridan sanalgan. Bundan tashqari, bu insonda ham badiiy did va adabiy tafakkur kuchli bo'lib, adabiyot, xususan, she'riyat ixlosmandlaridan sanalgan. Chunonchi, xattotlik uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Abdurrahim Mirzo xon saroyida kotib bo'lib turgani Mirzo Olim Mushrif Toshkandiyning "Ansobu-s-salotin va tavorixu-l-xavoqin" asarida keltirilgan. Abdurrahim Mirzoning otasi, yuz qabilasi boshliqlaridan biri Ne'matullobiy saroyda bakovulboshi lavozimida faoliyat olib borgan. Uning otasi Shunqorbiy esa yuz qabilasi boshlig'i sifatida o'z urug'iga rahbarlikdan tashqari, Qo'qon xonlari yurishlarida ishtirok etgan, xon majlislarida sardorlar safida qatnashgan¹⁵⁰.

Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasida saqlanayotgan №2931/1 raqamli konvertida muallifning 1945-yil mart oyida o'z qo'li bilan yozgan quyidagi tarjimai holi saqlanadi: "Men Qayyumov Po'latjon – o'zbek. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvonim bor. Asosiy hunarim o'qituvchilikdur. O'rta ma'lumotga ega bo'lib, 34 yillik xizmat stajim bor. Ijtimoiy kelib chiqishim xizmatchi. Men Qo'qon shaharida I Sharq ko'chasidagi hozirgi turgan hovlim bo'lgan №15 domda 1885nchi yil may oyida tug'uldim. Bobom xonlar xizmatida to'pchilik xizmatida bo'lgan kishi. Otam yana qalamkashlik bilan xizmat qilib kun ko'rgan kishi edi. Oti mulla Qayyum mirzadur. Bobomni oti Abdurahim mirza. Otam 1913nchi yilda 73 yoshda o'ldi. Onam: Poltabibi o'qigan bo'lib asli qishloqdan edi. U aroba tuzatadigan kosibning qizi bo'lib otamning II nchi xotini edi (I nchisi o'lgandan keyin olgan). Otamni eng so'ngi bolasi edim. 7 yoshimda maktabni eski usulda masjid yonidagi "diniy" maktab bitirdim. 1900nchi yilda Qiyot madrasada o'qudim. 2nchi

¹⁴⁹ Самандар Э. Улар шундай эдилар // Хўканд тарихи ва унинг адабиёти. –Тошкент: Tamaddun, 2011. –Б.377.

¹⁵⁰ Пулатжон домудлла Қайюмий. Тазкирани Қайюмий (нашрга тайёрловчи: Қайюмов А.). –Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти тахририй наشريёт бўлими, 1998. –Б.664.

yili otam kambag'allashdi. Men xizmatda bo'ldim bozor ijarachilarida izbor yig'ish blan. 1906nchi yilda "Russkoy tuzemnoy" shukulda 6 oy o'qidim. 1910nchi yilgacha paxta ishida xizmat qildim. Obidjon Mahmudovda ham boshqalarda bo'lib Mirzolim blan pryomshik bo'lib 42nchi zavodda turdim. 1911nchi yilda jadid maktabida o'qituvchi bo'lib to 1917nchi yilgacha xususiy maktab tutib keldim. 1918nchi yil sentyabridan maktab o'qituvchisi ham 3nchi sonli maktabga mudir bo'lib ishladim. 4nchi detdomda mudir bo'lib ishladim. 4, 5, 6, 7, 9-maktablarda muallimlik, so'ngra med rabfak, selxoz rabfak, kolxoz oliy maktabi uchkombinatlarda 37nchi yilgacha til va adabiyot o'qitib keldim. 1938nchi yildan 1942nchigacha 16-sonli o'zbek maktabida muallim ham ilmiy mudir bo'lib ishladim. Undan chiqib oilaviy sharoitimga bnoan Qo'qon rayonga borib o'rtoq Usmon Yusufov nomidagi kolxoz qoshidagi maktabda o'qituvchi bo'lib 1944nchi yil mart cheslosigacha unda ishladim. Kasalligim sababli rayon maorifi tomonidan muolajaga yuborildim. Nhojat 1944nchi yil 26/III martda II daraja "invalid" topilib ishdan bo'shadim. 1944nchi yil I/VI cheslodan boshlab Qo'qon shaharidagi Krayevay muzeyga ilmiy xodim bo'lib, tarix bo'limiga ishga tushdim. 1944nchi yil I/VIII chesloda menga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" deb unvon berildi. Bu kungacha shu xizmatda kelmakdaman. Kasalligim "tuber kuluz". Bir qizimam o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Katta o'g'lum furuntda xizmat qilmakda, bir o'g'lum SAGUda o'qumakda. Bir o'g'lum neft-noy texnikomda o'qiydi. Xotunim va 1 bolam, 2 nabiram qaramog'imdadur. O'zim 1920nchi yilda Qo'qonda ochilgan bir yillik ta'lim-tarbiya maktabida o'qudim. Yana turli kurslarda bo'ldim. Qo'qonda ochilgan 4 yillik kechki ta'lim-tarbiya institutining til-adabiyot fakultetini 2nchi kursini bitirib chiqdim 1931nchi yilda. Farg'ona shahridagi yozgi tarix kursini bitirib V-VI-VII klasslarga tarix darsi berish uchun guvonoma berilgan. 1919nchi yildan buyon sayuz a'zosiman".

Olimning ilm-fan yo'lidagi mashaqqatli hayot yo'lini to'rt davrga bo'lish mumkin:

1. 1910-1917-yillar: Po'latjon Qayyumiyning jadidchilik harakatidagi ishtiroki. Ustoz bu davrda Hamza, Sulaymonquli Rojiiy, Ibrohim Davron, Ashurali Zohiriy, Muhammadjon Xoliqiy, Salohiddin Majidiy, Abdulvahob Ibodiy, Ismoil Afg'oni, Salohiddin Majidiy, Yunusjon Og'aliquv, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Murodiy, Abdulla Juvonmardiyev, Abdulla Nasimiy, Abdulla Nosirov, Qavomiddin Munirov, Abdulfattoh Rasulov kabi ma'rifatparvarlar bilan bir safda turib mehnat qildi.

U dastlab Hamza tashkil etgan maktabda o'qituvchilik qildi. 1911-yilda sarmoyador qo'shnisi Obidjon Mahmudov ko'magida o'zi yashab turgan, Haydarbek mahallasida yangi usul maktabini ochdi. Qayyumiy domlaning bu davrdagi faoliyatining mazmun-mohiyatini uning kundalik daftari sahifalarida yorqin aks etgan:

"1912-yil 3-may, panjshanba... Bozorga bordim. Mullo Ahmadjondan "Devoni Hiloliy"ni oldim... Mulla Hamzaxon muallimdan erta - juma kuni soat 12da imtihona da'vat qilg'on xat keldi".

"1912-yil 7-may, dushanba. Erta soat 7da turdim. Nonushtadan so'ng, 8 yarimda o'quv boshlandi. Soat 4da ozod qo'ydim. Bolalardan saboqni yaxshi takror qilmagani uchun 8 nafari kechroq ketdi".

"1914-yilda shanba erdiki, makatabimizning 3-martaba imtihoni boshlandi... Mullo Mahmudjon maxdum, mullo Muhammadjon, muallim mullo Ashurali, mullo Is'hoq domullo, Umarxon muallim huzurida imtihon berdilar. Har qayulari imtihon qilib ko'rdilar. Jug'rofiyadan yaxshi imtihon berganlarni muallim mullo Muhammadjon domulla rasman zikr etdilar".

"8 nchi no'yobrda, panjshanba kuni 1335 (1917) sanaga dohil bo'ldi. Ushbu sababli bolalarga bayram qildirdim. Tarixdan bir oz aytdim. Bollar diqqat-la quloq soldilar. Mullo A'zamjon aka, Sultonali qori, Mulla Ashurali afandi, Mullo Is'hoq domullolar saboq berdilar".

"12.XI.1962 nchi yil, dushanba kuni Solihjon Yo'ldoshuflar Adabiyot muzeyidan Namanganga kitob sotib olish uchun boradurlar ekan, undagi do'stlardan Qora hoji, shoir Sho'xiylarga xat yozib, Ramziy, Zululiylarning kitoblarini sotishga yordam etuvlarini so'radim... Solihjonlar Namanganga ketishdilar. Bugun "Yangi Farg'ona" gazetasida Usmon Nosirning rasmi, tarjimai holi, mening maqolam chiqib edi, bir oz tuzatish joyi bordur, Lazixxonga yubordim".

“1963 nchi yil 20 nchi avgust, panjshanba... Shul kuni domullo Abdulqodir Murodiyga 20 nafar husnixat egalaridan tuzulgon ro'yxatni, sana 1304 hijriyda jaliynavis Mullo Mirmahmud maxdum muftiy Buxoriyning o'z qalami ila yozilmish qit'ani topshirdim”¹⁵¹.

1914-yilda O.Mahmudov Farg'ona vodiysi madaniy hayoti tarixida birinchi bo'lgan o'zbek tilidagi “Sadoyi Farg'ona” gazetasini ta'sis qildi. Gazetaning tashkiliy ishlarida P.Qayyumov jonbozlik ko'rsatib, gazeta muxbiri sifatida ham faoliyat olib borgan¹⁵².

2. 1917-1945-yillar. O'z muallimlik faoliyatini hukumat tomonidan ochilgan maktab-internatlarda davom ettirdi. Shu paytgacha qadar olim haqida bildirilgan ma'lumotlar, xususan, S.Samandarovaning “XX asr tazkiralari” monografiyasida olimga “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi” unvoni 1942-yilda berilgani aytilgan. Biroq, Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi №42 arxiv materiallari ushbu voqea 1944-yilda amalga oshganligini isbotladi.

3. 1945-1955-yillar. Qo'qon o'lkani o'rganish muzeyida tarix bo'limining mudiri vazifasida xizmat qildi. O'zbek adabiyoti va tarixiga oid nodir qo'lyozmalarni to'plash borasida samarali ishlar olib borildi. Ular asosida olim 69 ta she'rdan iborat Maxmur devoni (1950), Furqat qo'lyozma devoni (1959), Anbar otin she'rlar to'plami (1963)ni tuzdi. Mazkur manbalar olimga o'z asarlarini yozishida tayanch vazifasini o'tadi. Bundan tashqari, Muqimiy, Zavqiy, Hamza kabi ma'rifatparvarlarning qo'lyozmalari to'plandi¹⁵³. Bu davrda ko'plab shoirlarning devonlari hamda ular haqida ma'lumot beruvchi tazkira va bayozlar qo'lga kiritib, ularda ko'plab “yangi nom”larga duch keladi. Chunonchi, Mirza Olim Mushrifni tarixchi sifatida bilgan olim uning badiiy ijod bilan ham shug'ullanganligi to'g'risidagi faktlarga duch keladi hamda uning ijodidan namunalarni izlashga kirishadi. 1951-yil 4-iyunda uning devonini qo'lga kiritishga musharraf bo'ladi¹⁵⁴.

4. 1955-1964-yillar. Ilmiy merosining asosi shu davrda dunyo yuzini ko'rdi. “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti”, “Tazkirai Qayyumiy”, “Tazkirat ush-shuaro” kabi asarlarini yozdi. Bu davr haqida ham o'z kundaliklarida ayrim qaydlar mavjud:

“12.XI.1962 nchi yil, dushanba kuni Solihjon Yo'ldoshuflar Adabiyot muzeyidan Namanganga kitob sotib olish uchun boradurlar ekan, undagi do'stlardan Qora hoji, shoir Sho'xiylarga xat yozib, Ramziy, Zululiy larning kitoblarini sotishga yordam etuvlarini so'radim... Solihjonlar Namanganga ketishdilar. Bugun “Yangi Farg'ona” gazetasida Usmon Nosirning rasmi, tarjimai holi, mening maqolam chiqib edi, bir oz tuzatish joyi bordur, Lazixonga yubordim”.

“1963 nchi yil 20 nchi avgust, panjshanba... Shul kuni domullo Abdulqodir Murodiyga 20 nafar husnixat egalaridan tuzulgon ro'yxatni, sana 1304 hijriyda jaliynavis Mullo Mirmahmud maxdum muftiy Buxoriyning o'z qalami ila yozilmish qit'ani topshirdim”¹⁵⁵.

1918-1944-yillar olimning pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan yillaridir. Qo'qondagi turli maktablar, bolalar uylari, internatlar, ishchilar fakulteti, kechki pedagogika instituti va o'quv kombinatida mudir, o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, tarbiyachi bo'lib ishlagan. Minglab yoshlarga xat-savod o'rgatdi, ona tili va adabiyot, tarix fanlaridan saboq berdi. 1963-yilda “Sovet maktabi” jurnalining 2-sonida domla haqida M.Olimovning “Xalq o'qituvchisi” maqolasida olimning pedagogik mahoratiga yuksak baho berilgan. Jumladan, uning shogirdlari orasidan J.Saidov, M.O'rozboyev, S.Sirojiddinov, T.Sarimsoqov, T.Zohidov, U.Oripov, O.Aminov, M.Qoriyev, S.Sodiqov, Y.Otabekov kabi professor va akademiklar; Usmon Nosir, Amin Umariy, Abdulla Qahhor, Sobir Abdulla, Sharif Rizo, Temur Fattoh, Adham Rahmat kabi taniqli ijodkorlar, o'nlab olimlar, davlat va jamoat arboblari yetishib chiqdi.

¹⁵¹ №42. Po'latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.) yig'ma jildi. – Qo'qon: Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxiv materiallari.

¹⁵² Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси, 2006-йил 20-апрел сони. – Б.2.

¹⁵³ O'sha manba.

¹⁵⁴ Пўлатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи: Қайюмов А.). –Тошкент: Tamaddun, 2011. –Б.262.

¹⁵⁵ №42. Po'latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.) yig'ma jildi. – Qo'qon: Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxiv materiallari.

Po'latjon Qayyumiy 1944-yilda sog'ligi tufayli maktabdan nafaqaga chiqdi va Qo'qon o'lkashunoslik muzeyida bo'lim mudiri vazifasida ish boshlab, bu yerda 1955-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

Po'latjon Qayyumiy avlodlaridan ham ko'plab adabiyotshunoslar yetishib chiqqan va fanda "Qayyumovlar sulolasi"ni tashkil etgan. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasiga bu oiladan uch kishining kiritilishi ham ularning soha rivojida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Po'latjon domlani farzand va nabiralari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarida ham ustoz olimning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishida bajargan ishlarining hissasi kattadir.

Aziz Qayumov (1926-2018)da she'riyatga bo'lgan ishtiyoqni ko'rgan otasi o'z davri qo'qonlik shoir va adabiyotshunoslarining yetakchisi, O'zbekiston xalq shoiri Charxiy domlaga shogirdlikka beradi. Charxiydan ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade' sirlarini mukammal o'zlashtirgan Azizxon domla "Aziziy" taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari ikkita kitob qilib, "Navoiyga ta'zim" nomi ostida 2007-yilda nashr ettiradi. She'riyatdan tashqari, nasrda ham barakali ijod qilib, ko'plab memuar, qissa va ocherklar yozadi. Xususan, Navoiy va Furqat ijodi bo'yicha yozgan asarlari adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholangan. "Tazkirai Qayyumiy"ning 2-jild №14-fiqrasi Aziziyga bag'ishlagan (1-ilovaga qaralsin).

Po'latjon Qayyumiy shoir Maxmurning devonini topadi va uni Asg'arali Charxiyga ko'rsatadi. Ikki olim devonning dastlabki ilmiy tavsifini shakllantirishgach, O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq fakultetini tamomlab, O'zSSSR FA Shlda kichik ilmiy xodim lavozimida ishlayotgan Aziz Qayumovni Qo'qonga chaqirishadi va unga mazkur qo'lyozmani topshirib, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini amalga oshirishi mumkinligi haqida tavsiyalar berishadi. A.Qayumov akademik V.Y.Zohidov rahbarligida xuddi shu mavzuda 1954-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Bu paytgacha adabiyot ahliga Maxmurning faqatgina Qori Qunduziy qalamiga mansub Qo'qon xonligi tarixiga oid "Tavorixi manzuma"sidagi ayrim tarixlari va "Majmuai shoiron"ga kiritilgan 5ta g'azali ("Hapalak", "Tarog" va sh.k.)gina ma'lum bo'lib, 1954-yilda bo'lajak akademik tomonidan nashr etilgan "Maxmur" devonida uning 69ta she'ri (3717 misra) jamlangan edi. Bu haqida A.Qayumov shunday yozadi: "Biz o'rta maktabda o'qiyotgan paytlarda (XX asrning 30-yillari) o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha shoir Maxmurning bitta "Hapalak" radifli she'ridan boshqa hech narsa ma'lum emas edi. 1951-yili Qo'qon shaharida mening adabiyotdagi ustozim shoir Charxiy va padari buzrukvorimiz Po'latjon domulla Qayumovlar shoir Maxmurning devoni (qo'lyozma she'rlar to'plami) topilganini menga xabar qilishdi. Men darhol Qo'qonga yetib borib, uni topib kelgan odamdan sotib oldim va Toshkentga olib keldim. Akademiklardan G'afur G'ulom, Vohid Zohidov, Sharqshunoslik institutining direktori Sabohat Azimjonova bu qo'lyozma bilan tanishib chiqdilar. Shoir Hamid G'ulom (u kishi bu vaqtda markaziy gazetada adabiyot bo'limiga boshliq edilar) gazetada mening bu to'g'ridagi axborotimni e'lon qilishga yordam ko'rsatdilar. Bu mening markaziy matbuotdagi birinchi chiqishimdir. V.Y.Zohidov ilmiy rahbarligida men Maxmur qo'lyozma devoni to'g'risida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertasiya ishini 1954-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida yoqladim"¹⁵⁶.

Aziz Qayumov 1961-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi va u asosida tayyorlangan "Qo'qon adabiy muhiti" ilmiy asari vujudga kelishida "Tazkirai Qayyumiy" va Po'latjon domla tomonidan yig'ilgan boshqa materiallar birlamchi manba vazifasini o'tagan. Chunonchi, Akmal, Nizomiy Xo'qandiy, G'oziy, Hoziq, Maxmur, Ma'dan, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy, Nodir, Gulxaniy, Mushrif kabi shoirlar biografiyasi va asarlaridan namunalar berishda aynan "Tazkirai Qayyumiy" tayanch manba vazifasini o'tagan. 2010-2012-yillarda muallif ushbu asarini qayta tahrirdan o'tkazib, uni yangi zaruriy ma'lumotlar bilan boyitgan, davr mafkurasiga aloqador

¹⁵⁶ Каюмов А. Асарлар. 7-жилд. 2-китоб. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2012. –Б.5.

o'rinlarni olib tashlagan hamda o'zining "Asarlar"i 7-jildiga kiritgan. Ushbu nashrda ham "Tazkirai Qayyumiy" asos manba vazifasida qolgan.

Bundan tashqari, olimning Qo'qon adabiy muhitiga oid deyarli barcha tadqiqotlarida Po'latjon Qayyumiy xizmatlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Furqat va G'oziy bo'yicha tayyorlangan nashrlarida ham Po'latjon domla tomonidan yig'ilgan materiallarni ko'rishimiz mumkin. Qayyumiy domla o'zi tomonidan farzandlari, adabiyotshunos yaqinlariga taqdim etilgan manbalar xususida o'z tazkiralarda ortiqcha fikr aytishdan, ilmiy yangiliklarni e'lon qilib qo'yishdan o'zini tiyadi, muxtasar fikrlar bilan kifoyalanadi. Masalan, G'oziy haqida o'zida mavjud materiallarni o'g'li – Aziz Qayumovga berar ekan, "Tazkira Qayyumiy"da G'oziy haqidagi fiqrani quyidagi fikr bilan xulosalaydi:

"ايريم ديواني قوليازمه لار اينستيتوتيده باسمگه تيارلانماقده ايكنيدن آرتوق سوزلاشني لازيم كورمادوك."

"Ayrim devoni Qo'lyozmalar institutida bosmaga tayyorlanmoqda ekanidan ortuq so'zlashni lozim ko'rmoduk"¹⁵⁷.

Po'latjon Qayyumiy Hamza, Sulaymonquli Rojiiy, Ibrohim Davron, Ashurali Zohiriy, Muhammadjon Xoliqiy, Ismoil Afg'oniy, Abdulvahob Ibodiy kabi jadid ma'rifatparvarlari bilan birga Qo'qon va uning atroflarida jadidlik faoliyati bilan shug'ullangan. Po'latjon domla, asosan, maktabdorlik qilib, o'quvchilarning xat-savodini chiqarish, ularga ta'lim berish vazifasini o'tagan. Yuqorida zikr etilgan olimlar bilan bevosita yaqin aloqada bo'lganligidan ular to'g'risida unikal ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shulardan Hamza Hakimzoda Niyoziy bo'yicha o'zida mavjud bo'lgan barcha materiallarni to'rtinchi farzandi – Laziz Qayumov (1930-2004)ga taqdim etadi. L.Qayumov o'zining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida, "Hamza", "Inqilob kuychisi", "Inqilob va ijod", "Inqilobiy drama" asarlarida ushbu manbalarga tayangan. "Tazkirai Qayyumiy"ning Hamza fiqrasida olim bu haqida to'xtalib o'tgan (2-ilovaga qaralsin).

"2نچي جيلدگه ينه هم متيرياللاريميز باردور. قيووماو پولاد. 04.1960. "Tazkirai Qayyumiy" ning so'nggida. قوقان شهري."

"II jildga yana materiallarimiz bordur. Qayyumov Po'lod. 1960/IV. Qo'qon shahari"¹⁵⁸, deya muallif izohi keltirilgan. Bir so'z bilan aytganda, tazkira muallif tomonidan to'liq nihoyalanmagan. Muallif uni keyinchalik yana davom ettirmoqchi bo'lgan. Bu borada nafaqat, Qo'qon, balki Andijon, Namangan, Marg'ilon, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda istiqomat qilayotgan shoirlarga maktub orqali murojaatlar qilib ularning hayoti va adabiy faoliyati xususida ma'lumotlar yig'ib borgan. Biroq, olimning vafoti mazkur ishning yakunlanmay qolishiga sabab bo'lgan. Mazkur materiallarga tayangan holda uning kenja farzandi, f.f.n., Qo'qon shahar "Bilim" jamiyatining lektori Nasimxon Qayumov (1941-2009) tomonidan 2007-yilda 49 nafar shoirni o'z ichiga oluvchi "Qo'qon shoirlari" tazkirasini nashr etilgan.

Olimning nabirasi – Fotima Husainova (1937-1991, Munisxon Qayyumova (1918-1975)ning qizi) tog'asi Laziz Qayumovning talabi va ko'magida shoira Anbar Otin hayoti va adabiy faoliyati yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini boshlaydi. 1967-yilda shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Olima butun umr turli qo'lyozma bayozlar, adabiyot havaskorlari qo'llarida saqlangan Anbar Otin she'rlari hamda devoni qo'lyozmalarini yig'ish va nashr ettirish payidan bo'ldi. Buning natijasida 1963, 1970, 1981-yillarda shoira she'rlari uch marta to'ldirilgan holda chop etildi¹⁵⁹. Mahbuba Qodirova 1994-yilgi nashrida ham ushbu manbalarga tayandi. Fotima Husainova tomonidan tadqiq etilgan, hozirda ham G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon Adabiyot muzeyida saqlanayotgan shoiraning №4301 inv. "Qarolar falsafasi", №1647 inv. "She'rlar to'plami", №5778 inv. arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvining 32 harfiga maxsus bag'ishlangan "Yakka baytlar"i kabi asarlari Po'latjon Qayyumiyning tashabbusi va

¹⁵⁷ Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. –Toshkent: O'z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734. –S.81.

¹⁵⁸ O'sha manba. 631-sahifa.

¹⁵⁹ Хусаинова Ф. Шоира Анбар Отиннинг янги топилган рисоласи. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, №1. – Б.42-48.; Хусаинова Ф. Демократ шоира Анбар Отин. –Тошкент: Қизил Ўзбекистон, 1964. –Б.34-41.; Хусаинова Ф. Демократ шоира – Анбар Отин. Фил. фан. номз...дисс. –Тошкент, 1966. –167 б.

izlanishlari natijasida uning 1945-1955-yillarda Qo'qon o'lkani o'rganish muzeyida tarix bo'limining mudiri vazifasida xizmat qilgan paytlarida topilgan va davlat tasarrufiga olingan.

“Tazkirai Qayyumiy” yaratilgan davridan boshlab to hozirga qadar ko'plab dissertatsiya, monografiya, darslik va antalogiyalar uchun muhim manba vazifasini o'tab kelmoqda. Ayniqsa, 1998-yilda A.Qayumov tomonidan nashr etilgach, undan foydalanish ko'lami ancha ortdi. Chunonchi, N.Jabborov, O.Jo'raboyev, Z.Qobilova, D.Zohidova, D.Abdullayeva, A.Muhammadiyev, I.Sulaymonov, S.Samandarova, A.Dehqonov, Q.Pardayev, N.Muhiddinova, T.Toshboltayeva¹⁶⁰ kabi adabiyotshunoslar o'z ilmiy tadqiqotlari: dissertatsiya va monografiyalarida tazkiradan asosiy manbalardan biri sifatida foydalanishgan.




Olimning eng katta yutuqlaridan biri arab va fors tillaridan mukammal xabardorligidir. U Afzal Pirmastiy ibn Muhammad Ashraf Siddiqiy (1840-1915)ning “Afzal ut-tazkor fi zikr ush-shuaro val ash'or” (“Shoirlar va she'r to'g'risida eng afzal tazkira”), Qori Rahmatulloh ibn Ashur Muhammad VozeH Buxoriy (1817-1894)ning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob” (“Suhbatdoshlar tarjimai holidan do'stlarga tuhfa”), Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” (“Tojik adabiyoti namunalari”) asarlarini zo'r mahorat bilan tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar jamlansa 2500 atrofidagi ijodkor haqida ma'lumot bergan bo'ladi. VozeH tazkirasining tarjima qo'lyozmasi O'zR FA ShI 9411 inv.da saqlanadi.

Aziz Qayumovning e'tiroficha, “Tazkirai Qayyumiy”ning yozishiliga Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” asari katta ta'sir qilgan. Ayniy asari bilan tanishib chiqqach, olim “Namunai adabiyoti o'zbek”ni yozishni maqsad qilgan. Shu maqsadda o'tmish va zamondosh shoirlar she'rlarini to'plagan va unga “O'zbek adabiyoti namuna daftari” deb nom bergan. Qo'lyozma ba'zi jihatlari bilan bayoz ko'rinishida bo'lsa, ayrim xususiyatlari uni tazkiraga yaqinlashtiradi, goho tarixiy ma'lumotlar ham ilova qilinadi. Ya'ni, qo'lyozmada shoirlar she'rlarini jamlashga qaratilgan va ularning hayoti va ijodiga u qadar diqqat qaratilmagan holatlar – bayozga xos bo'lgan xususiyat. Biroq, ayrim o'rinlarda ba'zi shoirlar haqida berilgan ma'lumotlar bir necha sahifaga yetadi, she'rlaridan ayrim namunalar bilan kifoyalaniladi. Bu esa, tazkira elementlarini yodga soladi. Qo'qon xonligi tarixiga oid ma'lumotlarni havola qilinishi esa uni tarixiy asarga yaqinlashtiradi. Qo'lyozmaga kiritilgan she'rlarning barchasi turkiy (o'zbek) tilidan bo'lgani sababidan “Turkiy she'rlar to'plami” deb ham atalgan.

Qo'lyozma uzoq vaqt Qo'qon shahar G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot muzeyida saqlangan. 2017-yilda “Buyuk allomalar” muzeyiga ko'chirilgan. Hozirda №953 inventar

¹⁶⁰ Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан д-ри... дисс. –Тошкент, 2004. –280 б.; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. ном. дис. –Тошкент, 2003. 156 б.; Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2007. –26 б.; Қобилова З. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърятини мисолида): Филол. фан. д-ри ... дис. –Фарғона, 2022. –260 б.; Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2006. –23 б.; Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2003. – 24 б.; Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2008. –24 б.; Сулаймонов И. Қорий Хўқандий адабий мероси (монография). –Тошкент: Tamaddun, 2014. –196 б.; Самандарова С. Тазкирай Қайюмий – адабий манба: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 1996. –26 б.; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2007. –25 б.; Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. –Тошкент, 2020. –310 б.; Муҳиддинова Н. Мирҳасан Садойининг адабий мероси. Монография. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2015. –143 б.; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: “Мажмуаи шоирон” да аънаванавийлик ва ўзига хослик: Филол. фан. бўйича фал. д-ри (PhD) дис. автореф. –Фарғона, 2021. –58 б.

raqamida ostida “XX asr allomalari” zalidan joy olgan.



Qo'lyozma asarning qoralama nusxasidir. Zaruriy o'rinlarga juz'iy izohlar, shoirlar to'g'risida o'rni kelganda muxtasar ma'lumotlar berib ketish hollari ham kuzatiladi. Ba'zi o'rinlarga keyinchalik shoir tomonidan alohida qog'oz yopishtirib chiqilgan. Bunday sahifalarda shoirning keyinroq topilgan she'rlari berilgan. Bir sahifada ikki yoki uch misra yo band yonmayon kelgan. Misra va bandlar bir-birlaridan maxsus belgi yoki joy tashlab ketish orqali ajratilgan.

Keyinroq, olim shoirlar hayoti va ijodi hamda Qo'qon xonligi va Qo'qon shahri, uning atroflari tarixi haqida to'plagan ma'lumotlarini jamlab antologiya tuzishni niyat qiladi va o'z asariga “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti” deb nom beradi.

“Xo'qand tarixi va uning adabiyoti” asari yagona avtograf qo'lyozmasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI Qo'lyozmalar instituti №10041 inv.da saqlanmoqda. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida bitilgan. Xat turlaridan an'anaviy tarzda nasta'liq xati tanlangan. Bundan maqsad ushbu xat mayda yozish imkonini bera olishi, sahifaga ko'proq ma'lumot jamlash niyat qilingan. Qo'lyozma kotibligini muallif o'zi ado etgan. Safsar siyohdan foydalanilgan. Ayrim o'rinlarda muallif ohistalik bilan xushxat xattot sifatida matnning go'zalligi va ifodaning tushunarli

bo'lishiga e'tibor qaratgan bo'lsa, ba'zi holatlarda ma'lumotni tezroq qog'ozga tushirish, shakllangan ilmiy ifodani yo'qotmaslik maqsadida xatni tez va badxat yozish jarayonlari ham ko'zga tashlanadi. Qo'lyozma keyinroq A.Qayumov tomonida kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida ko'chirib chiqilgan.

Asar uch qo'lyozma daftardan iborat bo'lib, ularning umumlashtirib, sahifalar orasiga muallif tomonidan keyinroq qo'shib ketilgan sahifalar (ba'zi sahifalarga hech narsa yozilmay, bo'sh qoldirilgan) bilan birgalikda hisoblaganda qo'lyozmaning umumiy hajmi uch yuz sahifadan oshadi. Chunonchi, birinchi daftar 190 sahifadan tashkil topgan bo'lib, uning 19-34-sahifalari bo'sh qoldirilgan. A.Qayumov tomonidan ko'chirilgan nusxada 170 sahifani tashkil etadi. Ko'chirish kotib tomonidan 1966-yil 20-martda boshlanib, 1996-yil 19-aprel (juma) kuni nihoyalangan. Bu haqida noshir eskartish berib o'tgan.¹⁶¹ Yoki 3-daftar haqida shunday yozadi: "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" III daftari asl nusxa 56 sahifa. Mening xatimda 79 sahifa bo'ldi¹⁶². Asar muallif tomonidan uzoq va samarali mehnatdan so'ng 1957-yilda Xo'qandi latifda tugallangan. Uzoq yillar mobaynida yig'ilgan mazkur materiallarning ba'zilari yirik hajmli memuar hikoyalar bayonchiligida bitilgan bo'lsa, ayrimlari muxtasar fiqra yoki statistik ma'lumot, oddiy darak gap yo'sinida ham havola qilinadi. Muallif uslubi voqealarni qiziqarli yo'sinda bera olishi, kitobxonni zeriktirmasligi bilan ahamiyatli.

Antologiyadan asosiy maqsad Qo'qon adabiy muhiti to'g'risida ma'lumot berish bo'lishiga qaramay, shu bilan bir qatorda xonlikning tashkil etilishi, gullab-yashnashi, siyosiy inqirozi, Qo'qon shahri va unga yondosh qishloq va tumanlar tarixi, me'moriy yodgorliklari, shoir-u adiblar bilan bir safda tarixiy shaxslar, olimlar, diniy ulamolar haqida ham ma'lumotlar jamlangan.

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asari vujudga kelishida "Tarixi jahonkushoy", "Tarixi arba' ulus", "Shajarai turk", "Shajarai tarokima", "Shohnomai nusratpayom", "Nasabnomai tarixi xavonini Farg'ona", "Umarnoma", "Tarixi muhojiron", "Tarixi Shohruhiy", "Majmuai shoiron", "Afzal ut-tazkor", "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob", "Voqeoti Muhammad Alixon", "Muntaxab ut-tavorix", "Zafarnomai Xudoyorxon", "Jangnomai Xudoyorxon", "Tarixi Xo'qand", "Tavorixi manzuma", "Tarixi jahonnamoyi", "Mufarrih al-qulub", "Tuhfat ut-tavorixi xoniy", "Ibrat ul-xavoqin", "Tazkirai sultoniy", "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", "Anjum at-tavorix", "Namunai adabiyoti tojik", "Mukammali tarixi Farg'ona" kabi qo'lyozma va toshbosmalardan oziqlangan.

"Tazkirai Qayyumiy"ning vujudga kelishida "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" tayanch manba vazifasini o'tagan. Antologiyada jami 129 nafar ijodkorga alohida fiqra ajratilgan bo'lib, shulardan 114 nafari Qo'qon adabiy muhiti shoirlaridir. Shulardan 75 nafar ijodkorga ajratilgan firqalardan "Tazkirai Qayyumiy"ni tuzishda foydalanilgan. "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"da alohida fiqraga munosib ko'rilgan qo'qonlik shoirlardan 39 nafariga "Tazkirai Qayyumiy"da to'xtalinmagan.

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" 1-daftarida keltirilgan 5 nafar ijodkor: Mashrabi soniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Farog'iy, Zaliliy, Xoja Ahmad Yassaviy – ustoz shoirlar sifatida berilgan. Bir nafar shoir: Nizomiy Rumiy faoliyati, muallif ta'kidlaganidek, hali tadqiq etilmagan.

Arxiv ma'lumotlari orasidan olimning tarixshunoslik va o'lkashunoslik sohasida amalga oshirgan ishlaridan ayrim namunalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik. Unga ko'ra "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" dastlab ikki alohida kitob: "Xo'qand tarixi", "Xo'qand adabiyoti" dan iborat bo'lgan. Keyinchalik, olim tomonidan bitta asar holiga keltirilgan. Bu haqida adabiyotshunos Ahmadjon Madaminov va Tolib Xolmatovlar o'zlarining "Unutilmas siymolar" rukni ostida chiqqan "Ustoz muallim" maqolasida olimning tarixshunoslik faoliyati haqida shunday deydilar: "Po'latjon Qayyumiy keng ko'lamda ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi. Qo'qon tarixini o'rganishga jiddiy kirishdi. Shu maqsadda davlat xazinalaridagi yuzlab tarixiy

¹⁶¹ Пулатжон Қайюмий. Хўканд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи: Қайюмов А.). –Тошкент: Tamaddun, 2011. –Б.107.

¹⁶² O'sha asar, 358-bet.

manbalar bilan tanishdi, ko'pni ko'rgan, xabardor kishilardan, mashhur tarixiy shaxslarning avlodlaridan Qo'qon tarixiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni, muhim faktlarni yozib oldi. Qo'qondagi o'nlab mashhur mahallalar nomlarining kelib chiqish tarixlarini ham Po'latjon Qayyumiy aniqlagan. Qo'qon tarixini o'rganish borasidagi muttasil izlanishlari natijasida "Qo'qon tarixi" nomli kitobi maydonga keldi"¹⁶³. Ushbu fikrlar davomi sifatida mazkur maqolada shunday deyilgan: "Po'latjon Qayyumov umrining oxirigacha o'zbek xalqining qadimiy va boy adabiy merosini to'plash, xususan Qo'qon adabiy muhitida yetishgan shoirlar hayoti va ijodiga oid manbalarni yig'ish, o'rganish bilan sidqidildan shug'ullandi. Davlat fondlaridan, shaxsiy kolleksiyalardan adabiy materiallarni qunt va sabot bilan bir yerga jamladi, marhum shoir, xattot va san'atkorlarimizning avlodlarini izchillik bilan daraklab, surishtirib topib, ulardan fan uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan xotirlarni yozib oldi, barhayot ijodkorlarimiz bilan bevosita va bilvosita aloqa bog'lab, mazkur shaxslarning tarjimai hollarini, ijodlaridan namunalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Ana shu serdiqqat, mashaqqatli mehnatning samarasi o'laroq ustozning "Qo'qon adabiyoti" asari vujudga keldi"¹⁶⁴.

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" va "Tazkirai Qayyumiy"da takrorlangan shoirlar adabiy faoliyatini berish mobaynida xronologik o'rinlar ikkala asarda ikki xil taqdim etish holatlari mavjud. Bunday holatlarda "Tazkirai Qayyumiy"dagi variantlarni qabul qilish maqsadga muvofiq. Chunki, "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"dagi faktlar Po'latjon Qayyumiy qo'lga kiritgan yangi ma'lumotlar bo'lsa, "Tazkirai Qayyumiy"dagilari esa olim tomonidan turli manbalarga murojaat etish natijasida tahrirlangan variantlaridir.

Bundan tashqari, forsiy tilda ham qalam tebratgan turkiy shoirlar ijodi haqida muxtasar ma'lumotlarni o'zida jamlagan "Tazkirat ushshuaro" asarini ham avlodlarga ilmiy meros sifatida tuhfa etgan. Tazkira qo'lyozmasi O'zR FA ShI Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti №10018 inv.da saqlanmoqda. 1956yilda nihoyasiga yetgan mazkur asarda Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Eron va Hindiston hamda ularga tutash hududlarda yashagan forsiyzabon shoirlar, turkiy adabiyot vakillari ichidan yetishib chiqqan zullisonayn ijodkorlar haqida unikal faktlarni uchratishimiz mumkin.

Tazkira Shamsiddin Somiyning olti jildlik "Qomus ula'lam" asari asosida tartib berilgan bo'lib, asar tuzilishining ixchamligi, aniq va lo'nda ifodasi, adabiyot ahliga kam ma'lum bo'lgan yoki umuman ma'lum bo'lmagan ijodkorlar haqida ishonchli dalillarni keng jamoatchilikka olib chiqa olganligi bilan katta ahamiyatga ega. Tazkira nafaqat Shamsiddin Somiyning, balki boshqa har qanday salaf adabiyotshunos asarining aynan ko'chirilgan nusxasi bo'lib qolmay, aksincha, tuzatilgan, qayta ishlangan, to'ldirilgan, yangi materiallar bilan boyitilgan o'ziga xos ko'rinishi, jamlanmasidir. Unda shoirlar ismi, sharifi arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi tartibi bilan izchil joylashtirilgan. Shunga ko'ra, asarni alifbo asosida yozilgan tazkiralarni qatoriga kiritishimiz mumkin. Zamon va makon munosabatiga ko'ra esa o'tmish ijodkorlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiradir.

Fiqralar ayrim o'rinlarda mufasssal, ko'p hollarda muxtasar beriladi. Ularning asarlaridan keltirilgan ma'lumot namunalari esa shoir ijodining ayrim qirralarini ochib beradi. O'quvchida o'sha davr ijodiy muhiti haqida tasavvur uyg'otadi va asar hikoya tarzida maroqli o'qiladi. O'tmishda hamma shoirlar ham birday devon tuzib, kitob yozish yoki yozdirish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Bu holat o'zo'zidan ularning nomi va ijodi haqidagi xotiralar umrining chegaralanganligiga olib kelgan. Shu jihatdan ijodkor hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarning bir joyda jamlanishi va ma'lum tartib asosida o'z o'rnini topishi tazkira qimmatini oshiradi¹⁶⁵.

¹⁶³ Мадаминов А., Холматов Т. Устоз муаллим. // Меҳнат байроғи, 1985-йил 27-ноябр сони. –Б.3.

¹⁶⁴ O'sha manba.

¹⁶⁵ Пулатжон Қайюмий. Тазкират уш-шуаро. 1-китоб. (нашрга тайёрловчи: Қайюмов А.). –Тошкент: ЎзРФА Давлат адабиёт музейи, 2006. –Б.4-5.

Tazkira olim tomonidan uzoq yillar davomida ishlanib, to'ldirib borilgan. Buni asarda muallif tarafidan berilgan izohlar ham tasdiqlaydi. Dastlab olim o'z tazkirasini Ya'qub Tabriziy bilan nihoyalashni niyat qilgan. Mazkur shoirga bag'ishlangan fiqradan so'ng shunday yozgan:

1765=238+1527 shair ni o'z ichiga olgan. Bu antologiyaga "Qomus ula'lom"dan terib olindi. Tugatdim 1955nchi yil 22nchi no'yabrda Qo'qonda. Qayyumov F.¹⁶⁶. Bundan ko'rinadiki, tazkiradagi shoirlarning 238 nafari bevosita 1888-1899yillarda Istanbulda Shamsiddin Somiy tomonidan tuzilgan olti jildlik "Qomus ula'lom" ensiklopediyasiga kiritilgan ijodkorlardan saralash yo'li bilan terib olingan. Biroq, shundan so'ng ham olimda o'zida mavjud forsiyo'g'y shoirlar haqidagi manbalar asosida tazkirani davom ettirish fikri tug'ilgan. 17 nafar ijodkorni (Muftiy Tabriziy, Muftiy Shijo'iy, Mufrid Qumiy, Mufrid Hamadoniy, Mufrid Tabriziy, Mufleh Isfahoniy, Mufli Hindistoniy, Mufli Kunobodiy, Mufli siy, Mufidiy, Mavlono Sharafiddin Muqbil, Maqbul Qumiy, Maqbul Hindistoniy, Maqsud Xurosoniy, Maqsud Mazniyoniy, Maqsud Hindistoniy, Maqsadiylarni) qo'shib, shoirlar sonini 1782taga yetkazgan. Muallif bu haqida quyidagicha izoh bergan:

"Fors shoirlarining ontalo'giyasi" tamom bo'ldi. Buning "Qomus ula'lom" Shamsiddin Somiy asari 5jildidan tamom terib oldim. 1544tasi tartib raqamning ikkinchi bo'limi bo'lib tugallandi. 1nchi bo'lim "alif"dan boshlab "hamza" gacha 238ta bo'lub, butun ontalo'giyaga 1782 nafar shoir oti ko'rsatildi. Lekin, "mi", "miq" (harflari bilan boshlanadigan ismlarni) harflari tushib qolgani bo'ldi. O'z o'rniga qo'yish imkoni bo'lmaganidan oxirgi betlarda ko'rsatildi. 1955nchi yil 23nchi noyabrda bitirdim (Qo'qon shaharida, Farg'ona oblasti, O'zbekiston). Qayyumov Po'lod¹⁶⁷.

Shundan so'ng asarning oxirida muallif tomonidan "Axbor" sarlavhasi ostida so'ngso'z ilova qilingan. Unda "Tazkirat ush-shuaro"ning yozilish sabablari, tazkira yozilishida foydalanilgan adabiyotlar, materiallarning yig'ib borilishi, mazkur asarning turkiy adabiyot, qolaversa, bugungi kun o'zbek kitobxoni uchun naqadar zarurligi kabi masalalar yuzasidan Po'latjon Qayyumiyning fikrlari havola etilgan:

"Hormatli o'qovchilar! Bogg'uncha safa o'z biki tiliyde klsiyk shair lar to'g'riside yozilish antologiyeghe ghe doj kilmadik, disik boladi. Qisiy br yili tashkndeh kimlar tamaydin yozilish br antologiyeghe jode tar rmdk bolub, fqt m'ulum shair lar ostide gine aydi. au hm qitdn to'z tiliy basilmadi. Sdr al d'n eininik "nmon' edibiyati tadjik" namli esri qiqdi. "to'xft al ahbab" u "t'zkir' afzli" bol'ar k'ijik u o'z dori shair larinik shair laridin to'la k'orstmeh birgn bolse hm, tadjik tiliyde dor. k'ne t'zkir' lardn Azrinik "atshkde" si bln "t'zkir'eh dolatshahi" ortsidiki edibiyat mo'hiylarinik kotobxane l'ride m'steml aydi. noshe l'ri hm n'ad dor. "m'jalis al n'f'as" q'ig'tay'eh bolse hm h'ziriki z'man yash edibiyat'larinik f'aydalanishlariyeghe Ag'irlik kil'tir'gni m'elumdor. h'ziriki o'sish d'ride saf o'z biki tiliyde hr br edibiyat ahl'larinik ktob shik'ide k'lasik sh'q y'zochilari to'g'riside o'z ane tiliyde yozilish br n'ijeh ya m'ofsl'raq t'zkirt al sh'w'al'ar'eghe i'htij' to'g'olib to'rgni a'q'qdor. bu to'g'ride ros tiliyde yozilish antologiyeghe l'rdn f'ide l'nish hr kim'eghe m'isr bolm'gindn bu km'chilikni to'ldir'eh r'q' elmi q'otim km'lik'eghe q'rm'i br h'zmti elmi'eh bolub q'alsun d'ib yitishm'gn j'ailarini yash elimlarimiz to'ldir'ib tkml itishlaridin o'mid itib, k'ikse lik, k'sli'gim'eghe q'rm'i j'or'et itdm. b'ashqeh t'zkir'eh l'rdn k'ore m'ofiq'raq bol'gindn o'smanli to'rk'larin tiliyde yozilish "q'amos al elam" kt'bidn o'z biki tiliy ang'larlik hal'eghe kil'tir'ib y'zdm. bu ktob b'ndn 60 y'lar Al'din Al'din'raq yozilish'dor. likin kt'bede tadjik so'zi o'rnig'eh f'ars so'z q'oyil'ndiy'gindn min hm o'z'ijeh Al'ib aydm. bu kt'bede h'nd'stan shair'lrinik f'ars'eh d'ib, Er'an shair'lrini ayse Er'an shair'i d'ib y'zgn aydm. m'ore al n'her so'zini ayse to'rk'istan d'ib m'shtir'ib aydm. b'ndeh o'tmish sm'rq'nd, b'ox'ara shair'lrinik m'eh'z'eghe as'aslanib tadjik d'ib y'zish o'rnide f'ars shair'idor d'ib k'or'stib aydm. k'iyn'eh m'elom bolish'ijeh x'or'asan,

¹⁶⁶ Po'latjon domullo Qayyumiy. Tazkirat ush-shuaro. –Toshkent: O'z R FA ShI Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti №10018. –S.464.

¹⁶⁷ O'sha manba, 467-sahifa.

تورکستان شاعرلرینینگ هم شعر سوزیگه بناءً تاجیک شاعریدور دییشیم موافیق ایکن. بیراق بو هتام کتاب یازیلیب بولگج معلوم بولدی. بو قوسورنینگ توگتیش اونجه قیین ایمسدور. کتابدن تولا فایدلانیشدە هازیرگی الیفبیهگه کوچیریشده توزتیب اوتیلسه مومکیندور. بو مکتبده اوقیتیلادیکن کتاب ایمس. کیلاجکده فایده لانیسگه تیارلاش اوچون بر متیریئل مقامیده هزمت کیرکدور. هر حالده اساسی مقسیدیم یاش اوز بیک ادبیاتی موحییلاری اوچون اوزی انگلارلیک آنه تیلیلده بر کتاب ووجودگه چیقریب اونینگ ستالیده بر فایده لانیسگه لایق بر آنتلوگیه بیتکزیب بیریش ایدی. حیاتیتم موساعده ایتیپ، ساغلیغیم ایمکانیات بیرسه، فرغانه وادیسینینگ اوتمیش شاعرلارینینگ آنتلوگیه سی اوستیده ایش آلیب باریش پلانیتمده بهردور. قالگن "قوقان تعریخی و اونینگ ادبیاتی" ناملی عسیریمنی عتمامیگه بیتکز ایدم. یقینه هندستان شاعرلاری توغریسیده یازمن. بونی ایستیقبال کورستور. اوقوچیلاردن اومیدم شولکی، کیکسه لیک و کسلیک ایچینه ووجودگه کیلمیش بو کتابدگی کمچیلیکلارنی لوتف مرحمت ایتیپ توزتیب اوقورلار. حورمت بلان پولادجان قیوموف، اوزبیکستان سسسرده هیزمت کورستگن اوقیتوچی. 1956.26.03. قوقان شهر 1نچی شرق کوچسی، نومبر 15.

“Hurmatli o’quvchilar! Bugungacha sof o’zbek tilida klassik shoirlar to’g’risida yozilmish ontalo’giyaga duch kelmadik, desak bo’ladi. Qaysi bir yili Toshkanda kimlar tomonidan yozilmish bir antalogiya juda tor ramkada bo’lub, faqat ma’lum shoirlar ustidagina edi. U ham qaytadan tuzatilib bosilmodi. Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” nomli asari chiqdi. “Tuhfat ulahbob” va “Tazkirai Afzaliy” bular kichik va o’z davri shoirlarining she’rlaridan to’la ko’rsatma bergan bo’lsa ham, tojik tilidadur. Katta tazkiralardan Ozariyning “Otashkada”si bilan “Tazkirai Davlatshohiy” o’rtasidagi adabiyot muhiblarining kutubxonalarida masta’mal edi. Nusxalari ham nodirdur. “Majolis unnafois” chig’atoycha bo’lsa ham hozirgi zamon yosh adabiyotchilarining foydalanishlariga og’irlik kelturgani ma’lumdur. Hozirgi o’sish davrida sof o’zbek tilida har bir adabiyot ahllarining kitob shikafida klassik sharq yozuvchilari to’g’risida o’z ona tilida yozilmish bir necha yo mufassalroq “Tazkirat ush-shuaro”larga ehtiyoj tug’ulib turgani ochiqdur. Bu to’g’rida rus tilida yozilmish ontalo’giyalardan foydalanish har kimga muyassar bo’lmaganidan bu kamchilikni to’ldiraroq ilmiy quvvatim kamligiga qaramay bir xizmati ilmiya bo’lub qolsun deb yetishmagan joylarini yosh olimlarimiz to’ldirib takmil etishlaridan umid etib, keksalik, kasalligimga qaramay jur’at etdim. Boshqa tazkiralardan ko’ra muvofiqroq bo’lganidan usmonli turklar tilida yozilmish “Qomus ula’lom” kitobidan o’zbek tili anglarlik holga keltirib yozdim. Bu kitob bundan 60 yillar oldinroq yozilmishdur. Lekin kitobda tojik so’zi o’rniga fors so’z qo’yilandidig’idan men ham o’zicha olib edim. Bu kitobda Hindiston shoirlarining forscha deb, Eron shoirlarini esa Eron shoiri deb yozgan edim. Movarounnahr so’zini esa Turkiston deb almashtirib edim. Bunda o’tmish Samarqand, Buxoro shoirlarining ma’xazga asoslanib tojik deb yozish o’rnida fors shoiridur deb ko’rsatib edim. Keyincha ma’lum bo’lishicha Xuroson, Turkiston shoirlarining ham she’r so’ziga binoan tojik shoiridur deyishim muvofiq ekan. Biroq bu xatom kitob yozilib bo’lgach ma’lum bo’ldi. Bu qusurning tugatish uncha qiyin emasdur. Kitobdan to’la foydalanishda hozirgi alifbega ko’chirishda tuzatib o’tulsa mumkindur. Bu maktabda o’qitiladigan kitob emas. Kelajakda foydalanishga tayyorlash uchun bir material maqomida xizmat kerakdur. Har holda asosiy maqsadim yosh o’zbek adabiyot muhiblari uchun o’zi anglarlik ona tilida bir kitob vujudga chiqarib uning stolida bir foydalanishga loyiq bir antalogiya yetkazib berish edi. Hayotim musoida etib, sog’lig’im imkoniyat bersa, Farg’ona vodiysining o’tmish shoirlarining ontalo’giyasi ustida ish olib borish planimda bordur. Qolgan “Qo’qon tarixi va uning adabiyoti” nomli asarimni itmomiga yetkazar edim. Yaqinda Hindiston shoirlari to’g’risida yozarman. Buni istiqbol ko’rsatur. O’quvchilardan umidim shulki keksalik va kasallik ichinda vujudga kelmish bu kitobdagi kamchiliklarni lutfan marhamat etib tuzatib o’qurlar. Hurmat bilan Po’lodjon Qayyumov O’zbekiston SSSRda xizmat ko’rsatgan o’qituvchi 1956.24.03. Qo’qon shahar 1nchi Sharq ko’chasi, 15nchi no’mer”¹⁶⁸.

Qo’lyozma so’nggi sahifasiga Po’lotjon domlaning vafoti munosabati bilan yozilgan nekrolog yopishtirilgan. Nekrolog 1964yil 29-avgustda “O’zbekiston madaniyati” gazetasining №70 (893) soni 4betidan iborat.

Olim 1964-yil 27-avgustda 79 yoshida Qo’qon shahrida olamdan o’tgan. U dafn etilgan Shayxon qabristonining kun chiqar tarafida, qabri tepasiga yodgorlik xati yozilgan. O’zbekiston xalq shoiri Habibiy unga atab tarix bitgan. 1985-yil 28-noyabrda Qo’qon davlat pedagogika

¹⁶⁸ O’sha manba, 467-469-sahifalar.

institutida “Po’latjon Qayyumiy tavalludining yuz yilligi” yubileyi o’tkazilgan¹⁶⁹. Bundan tashqari, ko’plab badiiy, ilmiy, xotira kitoblarda olimning nomini, uning obrazini ko’rishimiz mumkin (3-ildavaga qaralsin). Shulardan biri M.Mamajonovning “Muallim” muvashshahi bo’lib, 1985-yilda “Po’latjon Qayyumiy tavalludining yuz yilligi” yubileyi munosabati bilan yozilgan. Ushbu muvashshavning toq misralari bosh harflarini yig’ib chiqsak, “Po’latjon” so’zi hosil bo’ladi.

Po’latjon Qayyumiyning izlanishlari Qo’qon adabiy muhitining keng ko’lamda o’rganila boshlanishiga amaliy turtki bo’ldi. Po’latjon Qayyumiyning zahmatli menatlari evaziga yuzaga kelgan asarlari, olim tomonidan samarali tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlari o’z davridan to bugunga qadar mumtoz adabiyot, xususan, Qo’qon adabiy muhiti bo’yicha amalga oshirilib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlarga birlamchi manbalardan bo’lib xizmat qilmoqda.


Olim xalq og’zaki ijodi namunalarini yig’ib olish va qayta ishlash ustida ham samarali mehnat qildi. Masalan, Hamrobibi Umarali qizidan yozib olgan va umumiy o’rta ta’lim maktablari 5-sinf adabiyot darsligidan joy olgan “Uch og’a-ini botirlar” ertagi buning yorqin namunasidir.

1946-yil 15-dekabrda Qayyumiy domla o’zi tug’ilib o’sgan joy haqida “Haydarbek mahallasi” nomli kichik o’lkashunoslik asarini yozib tugallagan. Uning yozuv mashinkasida ko’chirilgan nusxasi Qo’qon davlat muzeyi qo’riqxonasida saqlanmoqda. 33 bet hajmda. A4 format qog’ozga tushirilgan. Hajmi: 24x16. Manba yomon saqlangan. 24-33-betlarga suv tegishi va nam ta’sirida yozuvlarning ba’zi qismlari shuvalib ketgan. 20-betda muallifning kirill alifbosidagi izohi mavjud.

Olimning ko’plab qo’lyozmalari taqdiri hali-hanuz noma’lumligicha qolmoqda. N.Qayumovning qo’lida otasi tomonidan yig’ilgan Qo’qon shahrining xonlar davridagi qiyofasi, Haydarbek mahallasi o’tmishi bo’yicha materiallar, Mahzuna, Mastura, Muqimiy, Zavqiy, Hamza kabi ijodkorlar haqida ilmiy materiallar bo’lgan. Nasimxon Qayumov vafotidan so’ng, ularning taqdiri qanday bo’lganligi noma’lum. Po’latjon Qayyumiy ilmiy izlanishlar olib borgan xonalar olimning nabiralari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlarida buzib yuborilgan. Ularda mavjud bo’lgan manbalar taqdiri haqida tayinli javob yo’q. “Po’latjon Qayyumiy uy muzeyi”ni tashkil etish borasidagi izdoshlarining harakatlari samarasiz tugagan.

“O’zbek adabiyoti namuna daftari”, “Xo’qand tarixi va uning adabiyoti” asarlari, shubhasiz, “Tazkirai Qayyumiy” yozilishida tayanch manbalardir. Biroq ularning har biri alohida asar bo’larlik darajada farqlar, takrorlanmas ma’lumotlarga ham ega. Qolaversa, “O’zbek adabiyoti namuna daftari” tabdil etilmagan. Shuningdek, “Tazkirat ush-shuaro”ning to’liq matniy va manbashunoslik tadqiqi, Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lam” asari bilan qiyosiy-tipologik tahlili masalasi hali-hanuz o’z javobini kutmoqda. Mazkur manbalarning o’zaro farqli, o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish mufassal adabiyotshunoslar, xususan, matnshunos va adabiy manbashunos olimlar oldida turgan vazifalardan biridir.

Bu sulolaning eng yetuk vakillaridan yana biri, shubhasiz, Aziz Po’latovich Qayumovdir. U haqidagi dastlabki ma’lumotlarni otasi o’z tazkirasida quyidagicha bayon etgan:



¹⁶⁹ Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Qo’qon davlat muzeyi qo’riqxonasida №4019, fotograf I.Z.Mamarahimov tomonidan olingan suratlar esa, №1131 yig’ma jildlarda saqlanmoqda.

“14. Aziziy – Xo‘qand shaharida Xo‘jand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallada, hozirda 1nchi Sharq ko‘cha, 15nchi no‘merli hovlida 1926nchi yilda 19nchi yanvarda otasining 3nchi bolasi bo‘lub (2nchi o‘g‘ul) dunyoga keldi. Ko‘zlari ochiq holda enaga qo‘lida yalang‘och turgani holda atrofga qarab yig‘lamay termular edi. Shoir Majzubning nomi ekanining nazarda tutub Abdulaziz ataldi. Keyincha Azizxon bo‘lub ketdi. Muallim Po‘ladjonning o‘g‘lidur. Bobosi Abdulqayyum mirzo, katta bobosi o‘zbek elining yuz qabilasi sarkardalaridan Abdurrahim mirzodur. Uning otasi Ne‘matullo bakovulboshi va Shunqorbiyga borar emish (Ul kim ekanidan xabarimiz yo‘q esa-da, yuzlar qabilasidan boshliq ekani biy atamasidan ko‘rinadur). Abdurrahim mirzo xon saroyida kotib bo‘lub turgani “Ansob us-salotin” kitobida bordur. Adabiy sohaga muhibligini bobomdan qolgan kitoblarda ma‘lum bo‘lsa-da, shoirlik butun ko‘rungani yo‘qdur. Faqat she‘r Aziziya ko‘rundi. She‘riy ijodiga rahbar – ustoz domulla Asg‘arali Charxiy”¹⁷⁰.

A.Qayumov II Jahon urushi yillarida O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning sharq tillari fakulteti (hozirgi ToshDSH)ga o‘qishga kiradi (1944). Bu yerda ham Bertels, Arends kabi mashhur sharqshunoslardan ta‘lim oladi. Akademik V.Y.Zohidov yosh Azizxondagi iqtidorni ko‘rgach, u hali talaba ekaniga qaramay, O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga ishga taklif qiladi va shu yerda u ish faoliyatini ilmiy xodim, ilmiy kotib bo‘lib davom ettiradi (1949-1957). Vohid Zohidov bilan Aziz Qayumovning samimiy ustoz-shogirdligi esa bir umr davom etdi.

Keyinchalik Aziz Po‘latovich fan, ta‘lim va madaniyat sohasidagi turli yuqori lavozimlarda (Til va adabiyot instituti direktori, O‘zbekiston MKda bo‘lim mudiri, Madaniyat vaziri, Kinematografiya davlat Qo‘mitasi raisi, Madaniyat instituti rektori) ishlagan yillarida doimo o‘zbek fani, madaniyati va ma‘rifati yo‘nalishida halol va samarali ishlarni amalga oshirib bordi. O‘zR FA H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutidagi ko‘p yillik (1979-1998) rahbarligi davomida esa adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida o‘ziga xos ilmiy maktab va muhit yarata oldi. Hozirda Respublikamizning turli ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim dargohlarida mehnat qilib, fan va maorif rivojiga hissa qo‘shgan va qo‘shib kelayotgan ko‘plab olimlar chin ma‘noda domlaning shogirdlaridir. Ustoz Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida yetakchi ilmiy xodim sifatida yoshlarga murabbiylik qilib va ilmiy jabhada o‘rnak bo‘lib keldilar.

1953-yilda nomzodlik, 1960-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan A.Qayumov 1995-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi etib saylandi.

A.Qayumov yozgan asarlarda ilk turkiy yozma yodgorliklardan tortib, to XIX asrning oxirigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotiga daxldor materiallar tadqiq etilgan. Masalan, ustoz “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jild jildligining (1977-1979) mualliflaridan biri, “Maxmur” (1956), “Hozir” (1957), “G‘oziy” (1959), “Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar)” (1961); qadimiy yozma yodgorliklar tadqiqiga oid – “Qadimiyat obidalari” (1972), “Beruniy va adabiy ijod” (1973), “Beruniy va Ibn Sino” (1987); Alisher Navoiy ijodiyotiga doir – “Saddi Iskandariy” (1975), “Hayratul-abror talqini” (1977), “Farhod va Shirin sirlari” (1979), “Ishq vodiysi chechaklari” (1985), “Alisher Navoiy” (1976,1991), “Nodir sahifalar” (1991), “Bu ohang ila bo‘lg‘asen Naqshband” (1993); Bobur haqida – “Bobur ijodiyoti” (S.Hasanov bilan hammualliflikda) monografiyasi (2007), “Zahiriddin Muhammad Bobur” (2008), “Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti” (2009) kitob va risolalarini e‘lon qildi; yana, olimning Ahmad Farg‘oniy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Ogahiy, Furqat hayoti va ijodiga oid asarlari ham keng e‘tibor qozongan.

A.Qayumovning o‘zi haqida bildirgan ushbu fikri adabiyotshunos olimlar o‘rtasida juda mashhur bo‘lib ketgan: “Men har qanday rahbarlik lavozimlarida yurganimda ham ertalab soat oltida turaman. Yuvinib-taranib, nonushta qilib olgach, har kuni bir soat yettidan sakkizgacha o‘tirib ilmiy ijod bilan shug‘ullanaman. So‘ng ishga ketaman. Bu odatimni turli xizmat safarlariga

¹⁷⁰ Po‘latjon domullo Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi. №734. –S.612.

chiqqanimda ham kanda qilmayman. Bir kunda bir sahifadan yozilsa, bir yilda 365 sahifa matn qog'ozga tushadi". Shu uslub bilan ishlagan olim yigirma to'rt yil ichida beshta katta tadqiqot, yuzdan oshiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yaratib ulgurdi. Oliy o'quv yurtiga

rahbar bo'lgach, bu jarayon yanada tezlashib, besh yilda beshta kitob, o'ttizga yaqin maqolalar chop etildi. Ustozning qiziqish doiralari nihoyatda keng: qadim turkiy toshbitiklardan tortib alloma Beruniyning adabiy ijodga munosabatigacha ul insonning nigohidan qochib qutulmaydi. Ammo bu yillarda Azizxon Qayumov birinchi navbatda yirik navoiyshunos sifatida nom chiqardi. 1961-1985-yillar orasida olimning bu mavzuda besh risola va qirqqa yaqin maqolalari bosilib chiqdi. Navoiy dahosi bilan birga Qo'qon adabiy muhitiga doir asarlar yozishda ham to'xtamadi. Bu yo'nalishda yozilgan qator maqolalar, nashrga tayyorlash ishlari va so'zboshilar, taqrizlar, yosh olim va olimalar ishlariga rahbarlik va kitoblariga muharrirlik, tarjimalar va ularga redaktorlik bilan birgalikda ushbu yo'nalishda qator monografiya, ilmiy risolalar ham yaratdi. Jumladan, 1983-1986-yillarda Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haqidagi ilmiy-adabiy esse yaratildi. Bu asarning birinchi qismi "Sharq yulduzi" jurnalining 1986-yili to'rtinchi va beshinchi sonlarida, ikkinchi qismi esa 1989-yil beshinchi va oltinchi sonlarida bosilib chiqdi.

Mumtoz asarlarimizni nashr ettirib, targ'ib qilishda ham oldingi saflarda Aziz Qayumov bo'lgan. Sobiq sho'ro davrida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va ijodiga munosabat sovuq bo'lgan bir paytda uning she'rlarini O'zbekistondagi alohida kitob holidagi ilk ikki (1957,1958) nashri va asarlarining 3 jildligi birinchisi (S.Azimjonova bilan, 1965) A.Qayumov tomonidan amalga oshirilgan. Ilk bora Maxmur, Uvaysiy, Nodira she'rlari, Po'latjon Qayyumiyning ikki tazkirasi hamda "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asarlarini nashrga tayyorladi, adabiy merosimizning ko'pgina nashrlariga ham muharrirlik qildi. Yana, o'tgan asrda Ibn Sino "Tib qonunlari"ni arabchadan tarjima qilishda qatnashgan bo'lsa, uning ilmiy tahriri ostida chop etilgan Qo'lyozmalar institutining ikki jildlik rus tilidagi katalogi (1988-1989) xalqaro Imom Buxoriy mukofotiga sazovor bo'lgan (1998). Shuningdek, Moskvada nashr etilgan "Библиотека мировой литературы" va "Библиотека поэта. Большая серия" kitoblariga ham aynan A.Qayumov Alisher Navoiy asarlarini rus tilida tayyorlab bergan. Shuningdek, YUNESKO tomonidan chop etilgan "Dunyo adabiyoti" va "Markaziy Osiyo madaniyati" kitoblarining adabiyot qismi ustoz tomonidan yozilgan (Fransiya, 2000).

A.Qayumov domlaning milliy adabiyotshunosligimiz tadqiqiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan uzoq yillik izlanishlari uning 10 jild (12 kitob)dan iborat asarlarida o'z aksini topgan, deyish mumkin (Toshkent: Mumtoz so'z, 2008-2013). Ta'kidlash kerakki, nafaqat o'zbek balki, dunyo adabiyotshunoslari orasida ham bunday ko'p jildlik asarlari bosilgan olim juda kam topiladi.

Umuman aytganda, akademik A.Qayumovning nashr etilgan jami kitob, risola va maqolalarining adadi 500 dan ortiq. Ustoz olim ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida ham samarali ishlagan. Bir necha yil Qo'lyozmalar instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashga raislik qilib, juda ko'plab munosib tadqiqot va olimlarning kashf etilishiga sabab bo'ldi. O'zi ham o'ndan ziyod nomzodlik va doktorlik ishlariga rahbarlik qilgan.

Ustozning ajoyib va ibratli xislatlaridan yana biri ustozlarga doimo sadoqatidir. U kishining qalamiga mansub "Akademik G'afur G'ulom", "Akademik Oybek", "Akademik Vohid Zohidov" va yana XX asrda nom qozongan bir qator taniqli olimlar haqidagi xotira-risolalari ham jamoatchilik e'tiboriga tushgan.

Shu bilan birga, A.P.Qayumovning O'zbekiston Oliy Majlisi deputati (1995-2000) sifatidagi xizmatlari, "Milliy tiklanish" partiyasi safidagi jonbozliklari ham ziyolilarga yaxshi ma'lum.

Muhtaram olim bunday sermahsul ilmiy-ma'rifiy va jamoatchilik faoliyati uchun Beruniy nomidagi Davlat mukofoti (1980), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni

(1983), “Shuhrat” medali (1996), “El-yurt hurmati” (2003) va “Buyuk xizmatlari uchun” (2014) ordenlari bilan taqdirlangan. Akademik Azizxon Qayumov 2018 yil 17-fevral kuni vafot etdi¹⁷¹.

Shuningdek, Azizxon domla iste’dodli shoir ham edi. Uning “Aziziy” taxallusi bilan yozilgan ko’plab she’rlari, jumladan Navoiy g’azallariga qilingan o’nlab muxammaslari e’tirofga sazovordir. Aziz Qayumov ushbu taxmislarni jamlab, “Navoiyga ta’zim” nomi bilan ikkita kitob holiga keltirgan. Aziziy domlaning muxammas san’atiga naqadar qodirligini quyidagi bitta bandning o’zi aytib turadi:

Assalom ahlani va sahlani asdiqohu aqrabo,¹⁷²

Barcha shokirlar, vafolilar, hama ahli rizo,

Nazhab-u naxnu tariqi, allaziy, banno lino,¹⁷³

Ashraqtat min aksi shamsil ka’s anvor ul-Xudo,¹⁷⁴

Yor aksini mayda ko’r deb jomdin chiqdi sado.

Domlaning yana bir farzandi, noyob iste’dod sohibi Laziz Qayumovning Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodini tadqiq-targ’ib etish borasidagi xizmatlari ayniqsa muhimdir. Olim, o’qituvchi, muharrir va jamoat arbobi sifatida xizmat qildi.

Laziz Po’latovich Qayumov 1930-yil 23-aprelda tug’ilgan. 1952-yilda O’rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetini tugatib, 1953-1956-yillarda shu universitetda o’qituvchi sifatida ish boshlagan. Laziz Qayumov respublikamizning bir qator eng yuqori unvon, mansab va ilmiy darajalarga munosib ko’rilgan. Masalan, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi (1980), filologiya fanlari doktori (1963), professor (1965), dotsent (1956-1965), O’rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakulteti dekani (1960-1962), “O’zbekiston madaniyati” (1962-1981), “Sovet O’zbekistoni” (1984-1988) gazetalarning bosh muharriri, SSSR xalqlari adabiyoti kafedrasining mudiri (1963-1985; 1988-yildan vafotiga qadar), Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti laureati (1973) va boshqalar¹⁷⁵. 2004.11.1, Toshkent).

Hamzashunos sifatida tanilgan olim shoir ijodiga bag’ishlangan “Inqilob kuychisi” (“Hamza Hakimzoda biografiyasi”, 1962), “Inqilob va ijod” (1964), “Inqilobiy drama” (1970), “Hamza” (1973, 1989) kitoblarini nashr ettirgan. “Barhayot Hamza” (1967), “Hamza teatri” (1968), “Farzandingman, O’zbekiston!”, “Gul sayli” (1972) kabi hujjatli filmlar ssenariysi muallifi sifatida ham o’zbek madaniyati va san’atida muhim o’rin tutadi.

“Shoira Zulfiya” (1965, 1975), “Olmos iste’dod” (1965), “Zamondoshlar” (1972), “Asr va nasr” (1975) va boshqalar asarlarida adabiyotshunoslik va o’zbek adabiyotiga oid muammolar ochib berilgan. “O’qituvchi” (1954), “Gulistonning sening”, “Mehri daryo” (1975) voqeyiy hikoyalar va “Meridiandagi uchrashuvlar” (1976) publitsistik maqolalar to’plamlari ham adabiyotshunoslikda muhim sanaladi.

Qayumovlar sulolasining yana bir vakili, filologiya fanlari nomzodi Nasimxon Qayumov mustaqillik davrida tazkirachilikni davom ettirgan kam sonli adabiyotshunos olimlardan biri bo’lib, 2007-yilda chop etilgan “Qo’qon shoirlari” deb nom qo’yilgan bu kitobda qirq to’qqiz nafar ijodkorning asarlaridan namunalar mavjud. Ushbu sulolaning so’nggi vakili sifatida Po’latjon Qayyumiyning nabirasi, Munisxon Qayumovning qizi Fotimaxon Husainova bo’lib, shoira Anbar Otinga doir ilmiy izlanishlar olib bordi.

Mazkur olimlar faoliyatiga doir arxiv materiallari parokanda hoida yurtimizning turli hududlarida saqlanmoqda. Chunonchi, Qo’qon davlat muzeyi qo’riqxonasi va uning filiallari, xususan, Buyuk allomalar muzeyi, G’afur G’ulom nomidagi Davlat adabiyot muzeyida, bundan tashqari, O’z R FA ShI Qo’lyozmalar fondi, O’z R FA Asosiy kutubxonasi, O’z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi va

¹⁷¹ <http://www.navoimuseum.uz> (O’z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi sayti) materiallari.

¹⁷² Assalom, eson-omonmisiz, ey do’stlar va yaqinlar.

¹⁷³ Biz uchun qurilgan yo’ldan biz bormoqdamiz.

¹⁷⁴ Oldinga borish yo’llarini ko’rsatuvchi quyosh nurining aksi charaqlab turibdi.

¹⁷⁵ Олимов М. Лазиз Қаюмов. Адабий портрет. –Тошкент, 1980. Ўша муаллиф. Лазиз Қаюмов (Хотиралар). – Тошкент. 2005.

boshqa fond, kutubxonalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ularga doir qimmatli ma'lumotlar bera oluvchi bir qator nodir manbalar xususi kutubxonalar, adabiyotshunoslar, ushbu olimlarning shogirdlari va avlodlari qo'lida ham mavjud. Ularni bir joyga jamlash va ilmiy-tadqiqot muassasasiga aylantirishda uy-muzeyini tashkil etish muhim qadamlardan biri bo'ladi. Bunday muassasa, ularning tug'ilib o'sgan maskani – Xo'qandi latifda tashkil etilishi har tomonlama muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Самандар Э. Улар шундай эдилар. // Пўлатжон домулла Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи: Қаюмов А.). –Тошкент: Tamaddun, 2011. – Б.377.
2. Пўлатжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий (нашрга тайёрловчи: Қаюмов А.). –Тошкент: Ўз Р ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б.664.
3. №42. Po'latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.) yig'ma jildi. – Qo'qon: Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxiv materiallari.
4. Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси, 2006-йил 20-апрел сони. –Б.2.
5. Қаюмов А. Асарлар. 7-жилд. 2-китоб. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2012. –Б.5.
6. Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. –Toshkent: O'z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734. –631 s.
7. Хусаинова Ф. Шоира Анбар Отиннинг янги топилган рисоласи. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, №1. –Б.42-48.
8. Хусаинова Ф. Демократ шоира Анбар Отин. –Тошкент: Қизил Ўзбекистон, 1964. – Б.34-41.
9. Хусаинова Ф. Демократ шоира – Анбар Отин. Фил. фан. номз...дисс. –Тошкент, 1966. –167 б.
10. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. –280 б.
11. Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2007. –26 б.
12. Қобилова З. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърини мисолида): Филол. фан. д-ри ... дис. –Фарғона, 2022. –260 б.
13. Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2006. –23 б.
14. Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент, 2003. 156 б.
15. Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2003. – 24 б.
16. Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поетикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2008. – 24 б.
17. Сулаймонов И. Қорий Хўқандий адабий мероси (монография). –Тошкент: Tamaddun, 2014. –196 б.
18. Самандарова С. Тазкираи Қайюмий – адабий манба: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 1996. –26 б.
19. Деҳқонов А. Муҳайирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2007. –25 б.
20. Пардаев Қ. Муқимий шеърининг матн тарихи, таҳрири ва талқини: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2020. –310 б.
21. Муҳиддинова Н. Мирҳасан Садойининг адабий мероси. (Монография) – Тошкент: Mumtoz so'z, 2015. –143 б.